

SHAVKAT RAHMON “TURKIYLAR” SHE’RINING G‘OYAVIY BADIY TAHLILI

Avezmurodova Gulnoza Shavkat qizi,

O‘zMU Jurnalistika va o‘zbek filologiyasi fakulteti

Adabiyotshunoslik: o‘zbek adabiyoti yo‘nalishi

1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada Shavkat Rahmonning “Turkiylar” she’ri g‘oyaviy-badiiy jihatdan tahlil qilinadi. She’rda qo‘llanilgan obrazlar tizimi markazga olinib, ularning ramziy-majoziy mazmuni ilmiy asosda yoritiladi. Xususan, qilich, samoviy tulpor kabi ramziy obrazlar izohlanadi. Shuningdek ushbu obrazlar orqali shoirning tarixiy xotira, milliy o‘zlik va umumturkiy g‘oyalarni poetik ifodalash mahorati ochib beriladi hamda “Turkiylar” she’rining Shavkat Rahmon lirikasidagi o‘rni va ahamiyati aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: ramziy obraz, qilich, milliy ong, tarixiy xotira, tasvir, poetika.

Annotation. In this article, the poem “Turkiylar” by Shavkat Rahmon is analyzed from an ideological and artistic perspective. The system of images employed in the poem is taken as the central focus, and their symbolic and metaphorical aspects are examined on a scholarly basis. In particular, such symbolic images as the sword and the celestial steed are interpreted. Furthermore, through these images, the poet’s mastery in expressing historical memory, national identity, and pan-Turkic ideas in a poetic form is revealed, and the place and significance of the poem “Turkiylar” within Shavkat Rahmon’s lyric poetry are determined.

Keywords: symbolic image, sword, national consciousness, historical memory, imagery, poetics.

Аннотация. В данной статье стихотворение «Туркийлар» Шавката Рахмона анализируется с идейно-художественной точки зрения. В центре исследования находится система образов, использованных в стихотворении, а их символично-метафорическое содержание рассматривается на научной основе. В частности, интерпретируются такие символические образы, как меч и небесный тулпар. Кроме того, посредством этих образов раскрывается поэтическое мастерство поэта в выражении исторической памяти, национальной идентичности и общетюркских идей, а также определяется место и значение стихотворения «Туркийлар» в лирике Шавката Рахмона.

Ключевые слова: символический образ, меч, национальное сознание, историческая память, образность, поэтика.

Kirish. XX asr oxiri o‘zbek she’riyatida tarixiy xotira va milliy o‘zlik masalalari yetakchi mavzulardan biriga aylandi. Bu jarayonda Shavkat Rahmon ijodi alohida ahamiyat kasb etadi. Shavkat Rahmon lirikasida tarixiy tafakkur shoirning milliy o‘zlikni anglash va tarixiy xotirani badiiy idrok etish jarayoni bilan chambarchas bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Uning she’rlarida tarix muayyan davr yoki voqea sifatida emas, balki xalq ruhiyati va ongida yashovchi uzluksiz jarayon tarzida talqin etiladi. Shoir tarixiy obrazlar orqali millatning o‘tmishi, buguni va kelajagi o‘rtasidagi ma’naviy bog‘liqlikni ochib beradi. Ushbu obrazlar Shavkat Rahmon lirikasida ramziy-falsafiy ma’noga ega bo‘lib, tarixiy tajribaning umumlashgan timsoli sifatida ishlatiladi. Ular shoirida faqat voqelikni tasvirlash emas, balki tarixiy ongni uyg‘otish vazifasini ham bajaradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Shavkat Rahmon tarixni ko‘proq ogohlantiruvchi va tarbiyaviy hodisa sifatida talqin qiladi. Uning lirikasida tarixiy tafakkur milliy mas’uliyat va ma’naviy uyg‘onish g‘oyalari bilan uyg‘unlashgan holda badiiy ifodasini topadi.

Adabiyotlar sharhi. O‘zbek adabiyotshunosligida XX asr oxiri va mustaqillik davri she’riyati, xususan Shavkat Rahmon ijodi ko‘plab olimlar tomonidan turli nuqtayi nazardan tadqiq etilgan. Ushbu tadqiqotlar asosan shoir lirikasidagi tarixiy tafakkur, milliy o‘zlik, ramziy obrazlar tizimi va poetik uslub masalalariga qaratilgan.

O‘zbek adabiyotshunosligida tarixiy tafakkur, milliy ong, ma’naviyat masalalari ko‘plab adabiyotshunoslar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, Ibrohim G‘afurov, Naim Karimov, Qozoqboy Yo‘ldoshev, Ulug‘bek Hamdamov kabi olimlar tadqiqotlarida ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

Shavkat Rahmon ijodini o‘rganish borasida ham qator ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Ulug‘bek Hamdamov, Qozoqboy Yo‘ldoshev tadqiqotlarida Shavkat Rahmonning “Turkiylar” she’ri bir necha bor ilmiy tahlil obyektiga aylantirilgan. Mazkur olimlar o‘z izlanishlarida ushbu asarni nafaqat alohida poetik hodisa sifatida, balki zamonaviy o‘zbek she’riyatida tarixiy tafakkur va milliy o‘zlik muammolarini yorituvchi muhim badiiy matn sifatida baholaydilar.

Natijalar. Shavkat Rahmon ijodida “Turkiylar” she’ri shoirning tarixiy tafakkuri va milliy ong konsepsiyasi eng yuksak darajada mujassamlangan asarlardan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur she’rda shoir individual lirik kechinmalardan voz kechib, xalq taqdirini badiiy mushohada markaziga olib chiqadi. “Turkiylar” asari orqali Shavkat Rahmon tarixni voqeiy bayon etishdan ko‘ra, uni ramziy-falsafiy tafakkur orqali talqin qilish uslubini namoyon etadi. She’rda tarixiy obrazlar va ramzlar milliy o‘zlikni anglash jarayonining badiiy vositasiga aylanadi. Ushbu asar shoir lirikasida epik ruhning kuchayishi va tarixiy pafosning yuksalishi bilan ajralib turadi. “Turkiylar” Shavkat Rahmon ijodida milliy xotira, ma’naviy uyg‘onish va ogohlik g‘oyalarini bir butun konsepsiya sifatida ifodalagan muhim badiiy bosqichni tashkil etadi.

Qilichini tashladi beklar nihoyat,
bosildi tulporlar,
tig‘lar suroni,
urxoga o‘rgangan tillarda oyat,
turkiylar tanidi komil xudoni. [5:190]

She’rning dastlabki bandida “qilich”, “tulpor”, “tig‘lar suroni” kabi obrazlar orqali turkiylarning harbiy-siyosiy davri ramziy ifodalanadi. “Qilichni tashlash” zo‘ravonlikka asoslangan hayot tarzidan voz kechish, “tulporlarning bosilishi” esa istilochilik ruhining so‘nishini anglatadi. “Urhoga o‘rgangan tillarda oyat” misrasi turkiylarning islomni milliy tafakkur asosida qabul qilganini ko‘rsatadi. Bu hol diniy konversiyaning majburiy emas, balki ongli jarayon ekanini anglatadi.

Qilichlar zangladi...

falokat hushyor,
turkiylar quvvatin berdi yerlarga.
Hiylagar do‘stlarday yaqinlashdi yov
komillik qidirgan jasur erlarga. [5:187]

Keyingi badda “zanglagan qilich” va “hiylagar do‘st” obrazlari orqali siyosiy hushyorlikning yo‘qolishi va tashqi kuchlarning yashirin bosimi ifodalanadi. Shoir ma’naviy yuksalish bilan birga siyosiy beparvolik kuchayganini tarixiy falokat sababi sifatida ko‘rsatadi.

Ilvasin yigitlar,
bobir yigitlar,
sajdaga bosh qo‘ydi yovga ters qarab,
g‘ullarni kemirib yig‘ladi itlar,
buyuk boshni kesdi qilich yaraqlab [5:96].

“She’rda yovga ters qarab sajda qilish” motivi alohida ramziy ahamiyatga ega. Bu obraz jismoniy mag‘lubiyat sharoitida ham e’tiqodiy mustaqillik saqlanib qolganini bildiradi. “Buyuk boshning kesilishi” esa millatning yetakchi aqliy kuchlari yo‘qotilganini anglatadi.

Turkda bosh qolmadi... qolmadi dovlar.
xotin-xalaj qoldi motam ko‘tarib,
“bizga tik qarama” buyurdi yovlar,
yovlarga ters qarab yashadi bari. [5:156]

“Turkda bosh qolmadi” misrasi siyosiy va intellektual markazning yo‘qolishini bildiradi. “Xotin-xalaj” obrazi esa himoyasiz jamiyat timsolidir. Shu bilan birga, “yovlarga ters qarab yashash” yashirin, ammo barqaror qarshilik ramzi sifatida talqin qilinadi. She’rda uchraydigan “samoviy tulporlar” obrazi ham butun she’r g‘oyaviy tizimida markaziy ramzlardan biri sifatida xizmat qiladi. Tulpor - turkiy epik an’anada tezlik, harakat va erkinlik timsoli. “Samoviy” sifati qo‘shilishi bilan u jismoniy makondan chiqib, ruhiy-ideallik darajasiga ko‘tarilgan erkinlikni anglatadi. Samoga nisbat berilishi tulporni oddiy jangovar ot emas, balki millatga berilgan ilohiy quvvat, tarixiy salohiyat ramziga aylantiradi. She’r kontekstida “samoviy tulpor uyuri” turkiylarning umumiy qudrati va tarixiy imkoniyatlarini bildiradi. Samoviylik obrazni axloqiy va ma’naviy jihatdan yuksaltiradi. Bu tulpor zo‘ravonlik emas, adolat, komillik va ma’naviy yuksalish sari harakatni ifodalaydi. “Talandi samoviy tulpor uyuri” misrasida bu obrazning talanishi millatning erkinligi, kuchi va istiqbolining zo‘ravon kuchlar tomonidan barbod etilganini anglatadi.

She’rning keyingi bandlarida madaniy uzilish, yozuv va xotiraning yo‘qolishi, “qullar” obrazining tug‘ilishi orqali mustamlakachilikning eng og‘ir oqibati - ongiy qullik masalasi ochib beriladi. Shoir uchun jismoniy qirg‘indan ham xavflisi milliy tafakkurning yemirilishidir. “Inson qiyofasining hayvon suvratiga aylanishi” jamiyatdagi axloqiy

inqirozni ifodalaydi. “Jallod toshi” va majburiy sajda motivlari esa dinning zo‘ravonlik vositasiga aylantirilishini keskin fosh etadi.

O‘grilib sal ortga qarayin desa,
boshiga urarlar,
faqat boshiga.

Birinchi misrasi insonning o‘tmishini eslash, tarixiy xotirasiga murojaat qilish, o‘z holatini anglash istagini bildiradi. “Ortga qarash” bu yerda oddiy jismoniy harakat emas, balki o‘zlikni anglash, sababni izlash, tarixga nazar solish tafakkur qilish ramzidir. Shoir nazarida millatning qutulishi aynan shu ongiy uyg‘onishdan boshlanadi. Keyingi misra bu istakka nisbatan qo‘llaniladigan zo‘ravonlikni anglatadi. “Bosh” obrazi tafakkur, aql-idrok va shaxsiy irodaning markazi sifatida talqin qilinadi. Demak, urish jismga emas, fikrga, ongga qaratilgan jazodir. Bu hol mustabid tuzumning insonni emas, uning fikrlash qobiliyatini sindirishga intilishini ifodalaydi. “Faqat boshiga” takrori esa poetik urg‘u vazifasini bajarib, zo‘ravonlikning aniq manzilini keskinlashtiradi. Shoir bu orqali jismoniy azobdan ko‘ra fikrni yo‘q qilish, tafakkurni bo‘g‘ish asosiy maqsad ekanini ochib beradi. Bu misralarda ongiy qullikning eng og‘ir shakli - insonning o‘ylashdan qo‘rqib qolishi fojiasi ifodalanadi.

She‘ning oxirgi banlariga e‘tibor berilsa, xalqqa murojaat, da‘vat, ruhiy uyg‘otish vazifasini bajaruvchi hayqiriq yangraydi:

Bormi er yigitlar, bormi er qizlar,
bormi gul bag‘ringda jo‘mard nolalar,
bormi bul tufroqda o‘zligin izlab,
osmonu falakka yetgan bolalar.

Bunda shoir bevosita tasvir emas, balki savol shaklidagi poetik chaqiriq orqali millatning ma‘naviy holatini sinovdan o‘tkazadi. Banddagi takroriy “bormi” so‘zi tasodifiy emas. Bu takror millat ichida hanuz jasorat, iymon va jo‘mardlik ruhi saqlanib qolgan-qolmaganini tekshiruvchi ruhiy mezon vazifasini bajaradi. Shoir savol beradi, ammo bu savol javob kutishdan ko‘ra, vijdonni uyg‘otish, ichki javobni majburan yuzaga chiqarish maqsadiga xizmat qiladi.

“Er yigitlar” va “er qizlar” obrazlari jismoniy jinsga emas, balki ma‘naviy sifatga ishora qiladi. Tasavvuf adabiyotida er obraziga asosan, qanday ish bilan mashg‘ul bo‘lmasin, ko‘nglini Haq ishq va zikri bilan band qilgan kishi sifatida ta‘rif beriladi. Navoiy o‘z asarlarida bir necha bor ushbu obrazga ta‘rif bergan. U erlikni jinsdan-da oliy va beqiyos irodiy iqtidor deb biladi. Mutafakkir shoir “Navodir ush-shabob”ning 88-g‘azalida, er esang na erkak, na xotinga o‘xshamaydigan darajada qattiq va qat‘iyatli bo‘lgil, -deydi:

Er esang bo‘l sulbkim, na moda bo‘lg‘ungdur, na nar,
O‘zni gar yuz qatla olam ahlidek nar-moda et. [4:75]

Demak, “erlik” – madrlilik, jasorat, mas’uliyat, irodaviy mustaqillik timsoli. Shavkat Rahmon ham millatni erkak yoki ayol sifatida emas, jasur shaxslar jamoasi sifatida ko‘rishni istaydi. Keyingi misradagi “Gul bag‘ringda jo‘mard nolalar” birikmasida kuchli metafora mavjud. “Gul bag‘ri” – tashqi go‘zallik, osoyishtalik yoki beparvolik ramzi bo‘lsa, uning ichidagi “jo‘mard nolalar” – yashirin dard, ezilgan vijdon va aytilmay qolgan haqiqatni anglatadi. Bu obraz millatning ichki og‘rig‘i hanuz tirik ekanidan darak beradi. “O‘zligin izlab, osmonu falakka yetgan bolalar” obrazi esa bandning eng yuksak semantik nuqtasidir. Bu yerda “bolalar” biologik yosh emas, balki poklik, hali buzilmagan ong timsolidir. “Osmonu falakka yetish” esa milliy va ma’naviy o‘zlikni izlash yo‘lidagi yuksak intilish, ideal va orzular ramzi sifatida talqin qilinadi. Mazkur band she‘rning uyg‘otuvchi manifesti bo‘lib, unda shoir millatni tirik yoki o‘likligini jasorat, jo‘mardlik va o‘zlikni izlash mezonlari orqali baholaydi. Bu savollar orqali u tomoshabin emas, mas’ul shaxs bo‘lishga da’vat etadi. Band shoirning murosasiz pozitsiyasini, milliy ongni uyg‘otishga qaratilgan badiiy-falsafiy chaqirig‘ini mujassamlashtiradi. Ona vatanni yovga bermaslikka da’vat va buni istashlik har qanday millatning or-nomusli farzandi ko‘nglidan otilib chiqadigan nidodir. Demakki, u ko‘ngil dardi. Shoir ana shu umumdardni o‘z yuragidan o‘tkazib, o‘ziniki qilib kuylayaptiki, ijtimoiy dard vosita – she‘r orqali kitobxon dardiga aylanmoqda [3:317].

Ushbu she‘rda turkiylarning islomni qabul qilishi zo‘ravonlik emas, balki milliy tafakkur asosida amalga oshgan ma’naviy burilish sifatida yoritiladi. Biroq keyingi tarixiy jarayonlarda siyosiy hushyorlikning yo‘qolishi, hiyla va mustamlakachilik oqibatida millatning ichki birligi yemirilgani, qullik ongiga ega avlodlar yetishib chiqqani keskin tanqid qilinadi. Bu hol shoir qalbida chuqur iztirob uyg‘otadi va uning murosasiz ohangini belgilaydi.

Turkiylar” she‘rining g‘oyaviy markazida uyg‘otish maqsadi turadi. Shoir savol, da’vat va keskin hukmlar orqali o‘quvchini befarqlik holatidan chiqarishga intiladi. Bu she‘r shoir ijodida tarixiy xotira, milliy o‘zlik va ma’naviy mas’uliyat masalalarini eng yuqori darajada mujassam etgan asar bo‘lib, u bugungi o‘quvchini ham ongiy uyg‘onish, erkin fikr va axloqiy pozitsiyaga da’vat etuvchi dolzarb badiiy hodisa sifatida baholanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Shavkat Rahmonning “Turkiylar” she‘ri shoir lirikasida tarixiy ong, milliy xotira va umumturkiy tafakkurning badiiy ifodasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. She‘rda qo‘llangan ramziy obrazlar tizimi poetik g‘oyani markazlashtiruvchi asosiy badiiy vosita bo‘lib, ular orqali muallif tarixiylik va zamonaviylikni uyg‘unlashtirgan holda milliy o‘zlik masalasini yoritadi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, shoir obrazlar orqali umumlashma va ramziylik darajasini kuchaytirib, she‘rning estetik ta’sirchanligini ta’minlagan. “Turkiylar” she‘ri Shavkat Rahmon ijodida tarixiy-falsafiy qarashlarning poetik talqini sifatida namoyon bo‘lib, o‘zbek she‘riyatida milliy ong va tarixiy xotirani badiiy idrok etishning muhim namunalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Бобоев Т. Шеър илми таълими. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 344 б.
2. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 2002. – 556 б
3. Хамдамов У. Ўзбек ва жаҳон адабиётига чизгилар. Тошкент: QAMAR MEDIA, 2026. - 317 б
4. Хаккулов И. Навойга қайтиш. – Тошкент: “Фан” нашриёти, 2020. – 191 б
5. Рахмон Ш. Сайланма. –Тошкент: Шарк, 1997. -190 б.
6. Йўлдошев К, Йўлдошева М. Бадиий таҳлил асослари. – Тошкент: КАМАЛАК, 2016. – 462 б.
7. Йўлдошева М. Ҳозирги ўзбек модерн шеърятининг асосий хусусиятлари. – Тошкент, 2004. – 155 б.
8. Саримсоқов Б. Ўзбек шеър системалари ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент: 1988. № 4 – 38 б.

